

UDK 552.3:622.765:666.944:543.3

## DIABAZ-PIROKSEnit TARKIBLI TOG‘ JINSLARI CHIQINDISI VA KO‘PCHITILGAN VERMIKULITNING pH KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

**Parsayeva Nodira Juratovna**  
 Jizzax Politexnika instituti dotsent  
 E-mail: [nodiraparsaeva72@gmail.com](mailto:nodiraparsaeva72@gmail.com)

**O‘roqboyev Olliyor Bolbek o‘g‘li**  
 Jizzax Politexnika instituti assistent, tayanch doktarant  
 E-mail: [urokboyevolliyor@gmail.com](mailto:urokboyevolliyor@gmail.com)

**Mamirov A’zam Xusannovich**  
 Jizzax Politexnika instituti assistent,  
 E-mail: [azam.mamirov@bk.ru](mailto:azam.mamirov@bk.ru)

Maqolada diabaz-piroksenit tarkibli tog‘ jinslari chiqindisi va ko‘pchitilgan vermikuliting pH ko‘rsatkichlari tahlili keltirilgan, pH ko‘rsatkichi qurilish materialining ishqoriy yoki kislotali xususiyatini ifodalovchi parametrdir. Bu ko‘rsatkich material tarkibidagi ionlar (asan vodorod ionlari, H<sup>+</sup> va gidroksid ionlari, OH<sup>-</sup>) miqdoriga bog‘liq. Qurilish materialining pH qiymati uning kimyoviy tarkibi, ishlatilish maqsadi va atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siriga katta ta’sir ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** diabaz-piroksenit, dioritlar, kvarsli dioritlar - intruziv, porfiritlar, andezitlar ,vermikulit, ko‘pchitilgan vermikulit, pH ko‘rsatkichi,

В статье представлен анализ показателей pH отходов горных пород диабаз-пиroxенитового состава и вспученного вермикулита. Показатель pH является параметром, отражающим щелочные или кислотные свойства строительного материала. Этот показатель зависит от количества ионов в составе материала (в основном ионов водорода H<sup>+</sup> и гидроксид-ионов OH<sup>-</sup>). Значение pH строительного материала оказывает значительное влияние на его химический состав, область применения и взаимодействие с окружающей средой.

**Ключевые слова:** диабаз-пиroxенит, диориты, кварцевые диориты - интрузивные, порфиры, андезиты, вермикулит, вспученный вермикулит, показатель pH.

The article presents an analysis of the pH indicators of waste rocks with a diabase-pyroxenite composition and expanded vermiculite. The pH indicator is a parameter that reflects the alkaline or acidic properties of a construction material. This indicator depends on the amount of ions in the material composition (mainly hydrogen ions H<sup>+</sup> and hydroxide ions OH<sup>-</sup>). The pH value of a construction material significantly influences its chemical composition, application, and interaction with the environment.

**Keywords:** diabase-pyroxenite, diorites, quartz diorites - intrusive, porphyrites, andesites, vermiculite, expanded vermiculite, pH indicator.

### **Kirish**

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va uning umrboqiyligi tashqi aggressiv muhit ta’siriga bog‘liq. Shu sababli materiallarning pH ko‘rsatkichini

o‘rganish muhim ahamiyatga ega. pH ko‘rsatkichining asosiy qiymatlari quydagilardan iborat.

pH 7 dan past (kislotali): Material kislotali bo'lib, atrof-muhitni korroziyaga moyil qilishi mumkin.

pH 7 (neytral): Material neytral bo'lib, kimyoviy jihatdan barqaror.

pH 7 dan yuqori (ishqoriy): Material ishqoriy bo'lib, odatda qurilishda keng qo'llanadi, masalan, sement yoki beton turlarida.

Buni aynan qurilish materiallari va ularning pH ko'rsatkichlari misolida ko'rib o'tishimiz mumkin

Beton va sement aralashmalari: Sement va beton odatda kuchli ishqoriy bo'lib, ularning pH qiymati 12–13 oralig'ida bo'ladi. Bu ishqoriylik po'lat armaturani korroziyadan himoya qiladi va betonning chidamliligin oshiradi.

Ohak ( $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ): Ohakning pH qiymati 12-13 bo'lib, kuchli ishqoriy xususiyatga ega. Bu material qurilishda devorlarni suvoq qilish va mustahkamlashda qo'llanadi.

Gips ( $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ): Gipsning pH qiymati odatda 6-7 oralig'ida bo'ladi, ya'ni u neytral yoki zaif kislotali hisoblanadi.

Tuproqli materiallar (g'isht, tuproq): Tuproq va g'ishtning pH qiymati 6–8 oralig'ida bo'ladi, bu materiallarning tabiiy holatiga va tarkibiga bog'liq.

Izolyatsiya materiallari (mineral jun, ko'pik): Mineral jun va ko'pik materiallari odatda neytral yoki zaif ishqoriy bo'lib, pH qiymati 7–9 oralig'ida bo'ladi.

Suv o'tkazmaydigan materiallar (suyuq shisha): Suyuq shishaning pH qiymati kuchli ishqoriy bo'lib, 11–13 oralig'ida bo'ladi.

Yuqoridagi qurilish materiallarining tahlili natijasida pH ko'rsatkichining ahamiyati quyidagi ustunliklarni beradi.

Kimyoviy barqarorlik: Qurilish materialining pH qiymati uning atrof-muhit bilan reaksiyaga kirishish darajasini belgilaydi. Masalan, betonning yuqori pH qiymati po'lat armaturani oksidlanishdan himoya qiladi.

Korroziya va himoya: Ishqoriy muhit metall armaturalarni zanglashdan saqlaydi, ammo pH 9 dan pastga tushsa, korroziya xavfi ortadi.

Materialning ishslash muddati: Materialning pH qiymati uning uzoq muddatda barqaror va mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Atrof-muhit ta'siri: Kislotali yomg'ir yoki kimyoviy moddalar qurilish materialining pH qiymatini o'zgartirishi mumkin, bu esa materialning degradatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Aynan yuqoridagi ma'lumotlar tahliliga asoslanib biz diabaz-piroksenit tarkibli tog' jinslari chiqindisi va ko'pchitilgan vermiculitning pH ko'rsatkichlarini tahlili qildik, tahlil natijalarini ko'rishdan oldi aynan diabaz-piroksenit tarkibli tog' jinslari chiqindisi va ko'pchitilgan vermiculitning o'zi haqida yoritib o'tsak

Tarkibidagi oksidlarning miqdoriga ko'ra vulqon tog' jinslari quyidagicha sinflanadi:

o'ta yuqori asosli -  $\text{MgO}$  va  $\text{FeO}$  okidlariga boy, lekin  $\text{SiO}_2$  miqdori past (45% dan kam) bo'lib, dunitlar, piroksenitlardan iborat intruziv va effuziv komplekslardagi pikritlar;

asosli -  $\text{SiO}_2$  miqdori 45%dan 55%gacha,  $\text{CaO}$  va  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ga boy, lekin  $\text{MgO}$  va  $\text{FeO}$  miqdori kam (gabbro, noritlar - v intruziv, bazaltlar va diabazlar v effuziv komplekslarda);

o'rtacha nordon -  $\text{SiO}_2$  55%dan 65%gacha,  $\text{CaO}$  miqdori kam, lekin ishqorlarlarga boy (dioritlar, kvarsli dioritlar - intruziv, porfiritlar, andezitlar va boshqalar. - effuziv komplekslarda);

nordon -  $\text{SiO}_2$  miqdori 65%dan yuqori (granodioritlar, granitlar - intruziv, liparitlar, kvarsli porfirlar - effuziv komplekslarda). Ular vulqon tog' jinslarining yuqoridagi turlariga nisbatan ishqorlarga boy bo'lib,  $\text{MgO}$ ,  $\text{CaO}$ ,  $\text{FeO}$  oksidlarining miqdori kamroq.

Kimyoviy tarkibi va xossalariiga ko'ra, miqdori 65 %dan yuqori kvars, dala shpatlari (granitsimon) ko'rinishidagi  $\text{SiO}_2$  tutgan otilib chiqqan tog' jinslari nordon guruhga, asosan plagioklazlar i piroksenlar (bazalt turidagi) esa – asosiy guruhga mansubdirlar. Nordon va kuchsiz nordon lavalar qovushqoq va kam oquvchan

bo‘lib, asosiylariga esa – kam qovushqoqlik va harakatchanlik xos.

N.A.Toropovning fikricha, tarkibida  $\text{SiO}_2$  miqdori 40%dan kam bo‘lmasan jinslar o‘ta yuqori asosiy, 40-52% - asosiy, 52-65% - o‘rtacha asosiy, 65-75% - nordon va 75%dan yuqori bo‘lganlari esa o‘ta nordon turlariga mansub [1, 503 b.].

Qo‘ytosh konining ikkilamchi peroksin chiqindisini kimyoviy va mineralogik tarkiblari o‘rganildi va sement sanoatida qo‘sishimcha sifatida foydalanish

bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Piroksenitli chiqindining namunalarining kimyoviy tarkibini aniqlash bo‘yicha tahlili “Mega invest industrial” qo‘shma korxonasining laboratoriyasida olib borildi. Kimyoviy tahlillarga ko‘ra peroksinetli chiqindini asosan  $\text{CaO}$  (18,23%);  $\text{SiO}_2$  (31,0%);  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  (13,69%);  $\text{Al}_2\text{O}_3$  (7,2%)lardan iborat ekanligi aniqlandi (jadval 2.1). Ushbu chiqinidini tashqi ko‘rinishi donador qumsimon bo‘lib, rangi to‘q kulrang zarrachalardan iborat (1-rasm ).



**1-rasm Qo‘ytosh wolfram konidagi piroksinetli chiqindixona va qumsifat chiqindining ko‘rinishi**

**1-jadval**

**Piroksenitli qo‘sishchaning asosiy xossalari**

T/r	Xossalarning nomlanishi nomlanishi	Ko‘rsatkichlari
1	Umumiyligi miqdori, tonna:	1 816 480
2	Kelib chiqishi	wolfram rudasini qayta ishlashda hosil bo‘lgan chiqindi
3	Turi:	noorganik modda
4	Agregat holati	qattiq
5	Ko‘rinish holati	qumsimon
6	O‘lchami (fraksiyasi), mm	0,043-1,0
<i>Chiqindining tarkibiy xususiyatlari haqida ma’lumot.</i>		
7	Zichligi, t/m <sup>3</sup>	4,5
8	Namligi, %	10-15
9	Portlash qobiliyati	portlash xususiyati yo‘q
10	Yong‘in xavfi	yong‘in xavfi yo‘q
11	Yuqumli kasalliklar tarqatuvchanligi	yo‘q
12	Radiatsiya xavfliligi	radiaktiv emas

Sement qo'shimchasi sifatida qo'llash mo'ljallangan chiqindining qurilishda ishlatish uchun yaroqliligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri, uning nurlanish darajasi bo'lib, bu ko'rsatkich Jizzax viloyati CEO va ЖСБ radialogiya laboratoriyasida aniqlandi va qurilishda ishlatish uchun yaroqliligi va xavfsizligi to'g'risida ma'lumotnomalar olindi. Chiqindining kelib chiqishi, xususiyalari, texnologik xossalari to'g'risidagi ma'lumotlar, uning pasportida keltirilgan (1-jadval)

Avgit  $(\text{Ca}, \text{Mg}, \text{Fe})_2(\text{Si}, \text{Al})_2\text{O}_6$  - Magniy va temir kalsiy silikatları. Tabletkasimon, to'rburchakli yoki sakkizburchakli kesimga ega kalta prizmasimon o'lchamini 10 sm gacha bo'lgan kristallardan iborat bo'lib, yaxlitlangan ninasimon va dendritli



a

donador agregatlarni tashkil qiladi. Uning qattiqligi Moos bo'yicha 5-6 birlikda, bulib, anchagina nozik, yerga tashlanganda sinishi mumkin va amfibollar guruhiga mansub minerallarga yaqin. Tarkibida ortoklaz, labrador, olivin, piroksenlar aralashga monoklinkel singoniyaga ega mineral. Rangi qormitir-jigarrang, kulrangga yaqin yashil ko'rinishda uchraydi. Shamol ta'sirida avgit temir gidrooksidlari, karbonatlar, silikatlar (opal) va tuproqli galauzitlar bilan ham o'rinn mashadi.

Piroksenitli chiqindini tosh holatidagi va mayin kukunlangan fraksiyasini elektron mikroskopda olingan 2-rasmida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, chiqindi jins asosan yirik donalardan tashkil topgan bo'lib, ularning orlig'ida nisbatan mayda donalar joylashgan.




b

**2-rasm: Qo'ytosh volfram konining piroksinetli chiqindi toshini (a) va kukunini (b) tuzilishi**

Kukunlanganda massa tarkibidagi donalar juda kichik zarrachalar ko'rinishida bir tekis tarqalgan bo'lib, ularning oraliqlarda dumaloq shakldagi nisbatan kattaroq o'lchamdagisi donachalar ko'zga tashlanadi. Bunday tuzilishlar odadta asosiy massada yirik va maydaroq kristallar joylashgan porfirsimon strukturali deyiladi.

Qo'ytosh volfram konidagi diabaz-piroksenit tarkibli tog' jinslari chiqindisi va ko'pchitilgan vermiculitning pH ko'rsatkichlarini Samarqand viloyati Jomboy tumanida joylashgan "BMAX BUILDING MATERIALS" MChJ laboratoriyasida mavjud 3-rasmda keltirilgan ST3100 markali pH metrdan foydalanildi.



### 3-rasm: ST3100 markali pH metr

Tajriba ishlarini diabaz-piroksenit tarkibli tog‘ jinslari chiqindisining pH

ko‘rsatkichlarini aniqlashdan boshladik va quydagi natijalarni 2-jadvalda keltirilgan.

### 2-jadval

#### Qo‘sishchali va qo‘sishchasiz sement pH ko‘rsatkichlari

Maxsulot nomlanishi	Maxulot ko‘rinishi	Sinash jarayoni	pH ko‘rsatkichi
Volfram koni ikkilamchi chiqindisi			
15% qo‘sishchali sement			
Huaxin Cement P.C 32.5N			

Tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. Volfram koni chiqindisi ning pH qiymati 7.50 bo‘lib, neytral muhitga yaqin ekanligi aniqlandi. Bu chiqindining kimyoviy tarkibi boshqa sanoat chiqindilariga nisbatan muvozanatlari ekanligini bildiradi.

2. 15% qo‘sishchali sement ning pH qiymati 11.44 bo‘lib, odatiy sementnikidan pastroq, lekin baribir ishqoriy muhit hosil

qiladi. Bu natija volfram chiqindisining qo‘sishchasi ishqoriylik darajasini ma’lum darajada pasaytirishini ko‘rsatadi.

3. Huaxin Cement P.C. 32.5N ning pH qiymati 12.16 bo‘lib, bu oddiy sement uchun odatiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Sementning yuqori pH qiymati uning gidratatsiya jarayonida ishqoriy muhit hosil qilishini anglatadi.

Vermikulit (lot.vermiculis - chuvalchangsimon) – bu gidroslyudalar guruhiga mansub mineral bo‘lib, qizdirilganda ko‘pchiydigan material hisoblanadi. Vermikulit past haroratlari hidrotermal jarayonlar xamda magnezial va magnezial-temirsimon slyudalar, flogopit va biotitlarning xavoda yemirilishi natijasidagi mahsulot xisoblanadi. Ko‘pchitilgan vermekulit mineralini yuqori haroratda kuydirish orqali olinadi. Ko‘pchitilgan vermekulit kumush va oltin rangda bo‘ladi. Vermekulit mineralini maydalash va pishirish yo‘li bilan olingan tangacha zarrali (donalar) ko‘rinishidagi sochiluvchan issiqlik izolyatsiya materialidir.

Vermekulitli issiqlik saqlovchi qurilish materiallarining asosiy xom ashyosi - bu tog‘ jinslaridan olingan vermekulit rudasi hisoblanadi. Vermekulit minerallari vulqon otilishdan kelib

chiqadigan qatlamlili toshdir. Uning tarkibida temir, kremniy, magniy, alyuminiy oksidlari va boshqa aralashmalar mavjud. Qurilishdagi issiqlik saqlovchi plitalarni ishlab chiqarishda asosan ko‘pchitilgan vermekulit ishlatiladi, bu vermekulit konsentratini 900-1200 °C haroratda termik qayta ishlash natijasida olinadi. Termik ta’sir natijasida vermekulit namunasni uning boshlang‘ich hajmini keskin ravishda 12-20 martagacha oshirishga olib keladi [2, 3, 4].

Bundan tashqari, vermekulit konsentrati va ko‘pchitilgan vermekulitning pH ko‘rsatkichlari ham tahlil qilindi. Quyidagi materiallar sinovdan o‘tkazildi:

Vermekulit konsentrati – tabiiy holatdagi vermekulitning konsentrangan shakli.

Ko‘pchitilgan vermekulit – yuqori haroratda kengaytirilgan vermekulit namunasi.

### 3-jadval

**Vermekulit konsentrati va ko‘pchitilgan vermekulitning pH ko‘rsatkichi**

Maxsulot nomlanishi	Maxulot ko‘rinishi	Sinash jarayoni	pH ko‘rsatkichi
Vermekulit konsentrati			
Ko‘pchitilgan vermekulit			

### Xulosalar

1. Vermekulit konsentrati ning pH qiymati 8.06 bo‘lib, yengil ishqoriy xususiyatlarga ega ekanligi kuzatildi.

2. Ko‘pchitilgan vermekulit esa 7.00 pH qiymatga ega bo‘lib, u deyarli neytral muhitda ekanligi aniqlandi.

Ushbu maqolada diabaz-piroksenit tarkibli tog‘ jinslari chiqindisi va ko‘pchitilgan vermekulitning pH ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Qurilish materiallarining pH qiymati ularning ishqoriy yoki kislotali xususiyatlarini aniqlashda muhim parametr hisoblanadi va

bu ularning kimyoviy tarkibi, ishlatilish sohalari hamda atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirini belgilaydi.

Tadqiqot davomida Qo‘ytosh volfram konidan olingan piroksenit chiqindisining kimyoviy tarkibi tahlil qilinib, uning qurilishda sement qo‘srimchasi sifatida ishlatilish imkoniyati o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu chiqindi qumsimon tuzilishga ega bo‘lib, uning pH qiymati neytral yoki ishqoriy diapazonda bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, vermekulit mineralining tarkibi va xossalari tahlil qilingan. Ko‘pchitilgan vermekulit yuqori haroratda qayta ishlanganida issiqlik izolyatsiyasi uchun mos material sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, uning pH ko‘rsatkichi barqaror va mos diapazonda ekanligi aniqlangan.

Maqolada olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, diabaz-piroksenit chiqindisi va vermekulit qurilish materiallariga qo‘srimcha sifatida foydalanilganda kimyoviy barqarorlikni oshirish, korroziyaning oldini olish va ishlatish muddati uzoqligini ta’minalash kabi afzalliklarga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning qurilish sanoatida muqobil material sifatida qo‘llanilishiga imkoniyat yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Торопов Н.А., Буллак Л.Н. Кристаллография и минерология. - М.: Стройиздат, 1972. - 503 с.

2. Parsaeva, N., & Kurbanov, Z. (2023, June). Study of the process of determination of chemically contained water in the concentration of additional cement made on the basis of peroxine waste. In American Institute of Physics Conference Series (Vol. 2789, No. 1, p. 020012).

3. Парсаева, Н.Ж., & Искандарова, М.И. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ОТХОДОВ ОБРАБОТКИ ПИРОКСЕНИТОВЫХ ПОРОД МЕСТОРОЖДЕНИЯ «КОЙ-ТАШ» НА ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА. *Universum: химия и биология*, (6-3 (96)), 28-33.

4. Парсаева, Н.Ж., Курбанов, З.Х., & Бобокулова, Ш. (2021). Исследование физико-механических свойств бетонных изделий используемые промышленные отходы. *Science and Education*, 2(5), 417-423.

5. ГОСТ 12865-67 Вермикулит вспученный от 12 апреля 1967.

6. Vermikulit asosida issiqlik saqllovchi qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo‘yicha amaliy uslubiy qo‘llanma. Karimov M.U. va Xaqberdiev U.N.larning tahriri ostida. O‘zqurilishmaterialLITI” MChJ ilmiytadqiqot va injiniring markazi. Toshkent, O‘zsanoatqurilishbank” ATB – 2021. 57 b.

7. Vermikulit asosida issiqlik saqllovchi qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo‘yicha amaliy uslubiy qo‘llanma. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB-2021 yil.

8. Akramov, X. A. (2023). KO‘PCHITILGAN VERMIKULIT FIZIK-KIMYOVIY VA MINERALOGIK XOSSALARI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 271-273.

9. Baxodirovich, IY, & Bolbek o‘g, ORO (2023). Maishiyatsion ishlab chiqarishga asoslangan issiqlik izolyatsion polistirolbetonning qurilishida qo‘llanilish tizimini nazorat qilish. Barqarorlik va foya onlayn ilmiy jurnali , 3 (2), 146-149.